

Date: 23rd February-2026

“BOLA MANFAATLARINI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY-ME’YORIY
TALABLARI”

Jo’raboyev Azizbek Yoqubjon o’g’li

Andijon davlat pedagogika instituti 2-bosqich huquq talim yonalishi magistranti

Annotatsiya: Maqolada bola huquqlarining buzilishiga olib kelayotgan asosiy ijtimoiy-huquqiy omillar aniqlanib, ularning jamiyat rivojlanishiga, bolalar manfaatlarini ustuvorligiga va huquqiy madaniyat darajasiga ta’siri chuqur ochib berilgan. Shuningdek, milliy tizimning hozirgi holati xalqaro standartlar bilan solishtirilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish hamda huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo’yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bola huquqlarini himoya qilishning barqaror, izchil va samarali tizimini shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy va amaliy xulosalarni o’z ichiga oladi.

Kalit So’zlar: Bola huquqlari, Inson huquqlari, Bola manfaatlarini, Bola sha’ni va qadr-qimmatini, Diskriminatsiya qilmaslik, Teng huquqlilik, Bolani himoya qilish, Bolaga g’amxo’rlik.

Abstract: The article identifies the main socio-legal factors leading to the violation of children's rights, and their impact on the development of society, the priority of children's interests, and the level of legal culture is deeply revealed. Also, the current state of the national system is compared with international standards, scientifically based proposals and recommendations are developed to eliminate existing shortcomings and improve legal mechanisms. The results of the study contain theoretical and practical conclusions that serve to form a stable, consistent and effective system of protection of children's rights.

Keywords: Children's rights, Human rights, Children's interests, Honor and dignity of the child, Non-discrimination, Equality, Child protection, Child care.

KIRISH

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston inson huquqlari bo‘yicha 70 dan ortiq asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘shildi va BMT tomonidan bu sohada qabul qilingan oltita asosiy xalqaro shartnoma qatnashchisi hisoblanadi.

Istiqlolning dastlabki davrida, ya’ni 1992-yil 9-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro-huquqiy hujjatlardan yana biri – Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya bo‘lib, davlat ushbu Konvensiyada e’tirof etilgan huquqlarni amalga oshirish uchun barcha chora-tadbirlarni izchillik bilan qo‘llayotir. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz muntazam ravishda Konvensiya talablari ijrosi bo‘yicha Milliy ma’ruzalarini tegishli tartibda BMTning Bola huquqlari qo‘mitasiga taqdim etib kelayotir. Bolalar huquqlari targ‘iboti doirasida mazkur Konvensiya va boshqa tegishli xalqaro-huquqiy hujjatlarni davlat tilida chop etishga, shuningdek, alohida kitoblar shaklida nashr etib, keng tarqatish yo‘lga qo‘yildi.



Date: 23rd February-2026

Kitobxon e'tiboriga havola etilayotgan ushbu nashrda ham bola huquqlari sohasidagi asosiy xalqaro shartnomalar va milliy qonun hujjatlari jamlangan. Ushbu nashr talaba va mutaxassislar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Asosiy qism

Bola huquqlari – har bir bola (18 yoshga to'lmagan shaxs bola hisoblanadi) hech qanday cheklashlarsiz ega bo'lishi lozim bo'lgan huquq va erkinliklardir. Bolalar va yoshlar kattalar bilan bir xil inson huquqlariga ega va bu barcha tomonidan tan olinadi.

Bola huquqlarining ta'rifi mantiqan Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining asosiy g'oyalaridan kelib chiqadi. Uning alohida moddasi bolalarga bag'ishlangan. Unda aytilishicha, "Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam olish huquqini beradi". Shunday qilib, deklaratsiyada e'lon qilingan barcha erkinliklarga bolalarning teng huquqliligini tan olgan holda, xalqaro hamjamiyat bolalarga qo'shimcha yordam va qo'llab-quvvatlash zarurligini tan oladi. Ya'ni, bolalar o'zlarining maxsus ehtiyojlari, shuningdek ekspluatasiya va suiiste'molliklarga nisbatan zaifligi tufayli qo'shimcha huquqlarga ega.

10 yil davomida (1979 yildan 1989 yilgacha) BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasida ishtirok etgan dunyoning ko'plab mamlakatlari mutaxassislari bola huquqlari to'g'risidagi yangi hujjatning matnini ishlab chiqdilar, unda bolaning jamiyatdagi hayotining barcha jabhalari maksimal darajada hisobga olinadi. 1989- yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi. Shu bilan barcha mamlakatlar butun dunyo bo'ylab bolalar oldida tarixiy majburiyat oldilar. Bu tarixdagi eng ko'p ratifikatsiya qilingan inson huquqlari bo'yicha shartnomaga aylandi va butun dunyo bo'ylab bolalar hayotining o'zgartirishga yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992-yil 9-dekabrda qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 11-dekabrda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokolni, 2008-yil 12-dekabrda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolni ratifikatsiya qilgan.

"Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" qoidalarining bajarilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining 1999-yilda dastlabki, 2005-yilda ikkinchi davriy, 2010-yilda uchinchi va to'rtinchi davriy, 2019-yilda beshinchi davriy hisobotlari BMTning bola huquqlari bo'yicha qo'mitasiga topshirilgan.

Konvensiya barcha bolalarning asosiy insoniy qadr-qimmatini va ularning farovonligi hamda rivojlanishini ta'minlashning dolzarbligini tan oladi. Konvensiyaga ko'ra, bolalar huquqlarini himoya qilishning asosiy prinsipi – bolalar manfaatlarining ustuvorligini tan olishdir.

Har bir bola oziq-ovqat, birlamchi tibbiy yordam va rasmiy ta'lim, o'yin va dam olish kabi asosiy ehtiyojlarga ega bo'lgan g'amxo'r, mehribon hamda yetarli turmush



Date: 23rd February-2026

darajasiga ega bo'lgan oilada o'sish huquqiga ega. Bundan tashqari, har bir bola e'tiborsizlik va zo'ravonlikdan himoyalaniş huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan. Hususan, Konstitutsiyaning 78-moddasidan quyidagicha norma o'rin olgan:

"Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir.

Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi".

So'nggi yillarda O'zbekiston bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirar ekan, "hech bir bola e'tibordan chetda qolmaydi" degan tamoyilga amal qilmoqda.

Shuningdek, "Inson qadri uchun" g'oyasi hamda "hech kimni orqada qoldirmaslik" tamoyiliga muvofiq o'tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlar doirasida mamlakatimiz Asosiy qonuniga bolaning huquq va manfaatlarini ta'minlash kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan yangi ilg'or normalar kiritildi, milliy qonunchilik bola huquqlariga doir xalqaro normalarga to'la-to'kis muvofiqlashtirilmoqda.

Xususan, O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha kafolatlar kuchaytirildi, bu borada davlatning majburiyatlari kengaytirildi.

Mamlakatimizda bolalar huquqlarini ta'minlashga doir 40 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan bo'lib, mazkur normativ-huquqiy hujjatlar "Bolaning eng yaxshi manfaatlarini" prinsipini hayotga joriy qilishga qaratilmoqda.

2021-yil 7-dekabrda "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, 13 yoshga to'lgan shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishi bekor qilindi. Jinoiy javobgarlikka tortish 14 yoshdan boshlanishi belgilandi. Voyaga yetmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishda pedagog bilan bir qatorda psixolog ham qatnashishi belgilandi.

2023-yil 12-aprelda qonunchilikka o'zgartirishlar kiritilib, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tariqasidagi insonparvarlik aktlari tatbiq etilmasligi belgilanib, bunday jinoyatlar uchun jazo choralari yanada og'irlashtirildi. Bolaga alohida g'amxo'rlik ko'rsatish zarurligi 1924-yilgi Jeneva "Bola huquqlari deklaratsiyasi"da hamda BMT Bosh Assambleyasi 1959-yil 20-noyabrda qabul qilgan "Bola huquqlari deklaratsiyasi"da bayon etilganini, shuningdek bu ehtiyoj "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi



Date: 23rd February-2026

xalqaro pakt”da (xususan, 23 va 24-moddalarda), “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt”da (xususan, 10-moddada), hamda bolalar farovonligi bilan shug’ullanuvchi ixtisoslashgan muassasalar va xalqaro tashkilotlarning nizomlari hamda tegishli hujjatlarida e’tirof etilganini e’tiborga olib,

Bolaning “jismoniy va ruhiy jihatdan yetuk bo’lmagani sababli, u tug’ilishidan oldin ham, tug’ilgandan keyin ham maxsus kafolatlar va g’amxo’rlikni, shu jumladan tegishli huquqiy muhofazani talab qiladi”, degan qoida “Bola huquqlari deklaratsiyasi”da ko’rsatilganini yodda tutgan holda,

Bolalarni himoya qilish va ularning farovonligini ta’minlashga doir ijtimoiy va huquqiy tamoyillar to’g’risidagi Deklaratsiya, xususan, ichki va xalqaro miqyosda oilaga olinadigan (farzandlikka olish va patronat) bolalarga alohida e’tibor berilishi; Voyaga yetmaganlar odil sudlovini amalga oshirishga doir Birlashgan Millatlar Tashkilotining Minimal standart qoidalari (Pekindagi qoidalar); shuningdek “Favqulodda holatlar va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to’g’risidagi deklaratsiya” qoidalarini eslab,

Dunyoning barcha mamlakatlarida favqulodda og’ir sharoitlarda yashayotgan bolalar mavjudligini va bunday bolalar alohida e’tibor va g’amxo’rlikka muhtojligini tan olgan holda,

Har bir xalqning an’analari va madaniy qadriyatlari bolani himoya qilish hamda uning uyg’un rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega ekanini inobatga olib,

Bolalarning turmush sharoitini yaxshilash, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, xalqaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanini e’tirof etgan holda, quyidagilar haqida kelishib oldilar: Afsuski, bolalarning barcha huquqlari muntazam ravishda buziladi yoki poymol qilinadi. Bu hatto tug’ilish paytidayoq boshlanishi mumkin. Masalan, dunyo bo’yicha taxminan 290 million bolaning tug’ilishi qayd etilmagan, shu bois ularning huquqiy shaxsi ham, mavjudligini tasdiqlovchi hujjati ham yo’q. Bu esa ularning butun hayoti davomida o’z huquqlarini talab qilishi deyarli imkonsiz ekanini anglatadi – natijada ular maktabga bora olmasligi, tibbiy xizmat ololmasligi yoki katta bo’lganda ish topa olmasligi mumkin. Kam daromadli mamlakatlardagi qizlar esa huquqiy shaxsga ega bo’lishi va o’z huquq hamda xizmatlarga ega bo’lishi borasida atigi 50/50 ehtimolga ega.

Dunyo bo’ylab 61 milliondan ortiq bola boshlang’ich maktabga umuman qatnashmaydi. Har yili taxminan 150 million qiz va 73 million o’g’il bola jinsiy zo’ravonlikka uchraydi. Ayrim mamlakatlarda to’qqiz yoshli qizlar majburan turmushga uzatiladi, olti yoshli bolalar esa jinoyat sudlarida kattalar singari sud qilinadi. Har yili kamida 80 mamlakatda 330 mingdan ortiq bola faqat migrant yoki qochoq bo’lgani uchun migratsion hibsonalarda saqlanadi. Ko’p bolalar majburan ota-onalari va oilalaridan ajratib qo’yiladi.

2019-yilda har olti boladan biri o’ta qashshoqlikda yashagan. Bunday vaziyat bolalarni oilaviy zo’ravonlik, bolalar mehnati, jinsiy ekspluatatsiya, erta homiladorlik va bolalar nikohi xavfiga yanada ko’proq duchor etadi. Covid-19 pandemiyasi davrida bu raqam keskin oshdi.



Date: 23rd February-2026

2020-yilda deyarli 820 million bolada maktabda oddiy qo'l yuvish sharoitlari ham mavjud emas edi. Bu ularning sog'liq huquqini buzadi va infeksiyani yuqtirish hamda boshqalarga yuqtirish xavfini kuchaytiradi. Xalqaro universal tashkilot sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining bola huquqlarini himoya qilishda tutgan o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

BMT tizimi juda ham murakkab bo'lgan xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar, organlar, qo'mitalar, komissiyalar va boshqa tuzilmalardan iborat bo'lib, ularning orasida bola huquqlari bilan shug'ullanuvchi organlar tizimi shakllangan. Bu tizimga, avvalo, BMT Bosh Assambleyasi, EKOSOS kabi uning asosiy organlari, YUNISEF kabi maxsus jamg'armasi, Bola huquqlari qo'mitasi kabi shartnomaviy organlari hamda YUNESKO, XMT kabi ixtisoslashgan tashkilotlari kiradi.

BMTning asosiy organlari ham, yordamchi organlari ham u yoki bu darajada inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlarini himoya etishga taalluqli masalalar bilan ham shug'ullanadi.

Bola huquqlari muammolarini o'rganish hamda tadqiq etish ishlarini odatda Bosh Assambleyaning topshirig'iga binoan, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash hamda uning yordamchi organlari, ixtisoslashtirilgan muassasalar va BMT Bosh kotibi bajaradi.

Bosh Assambleya inson huquqlari sohasidagi o'z vazifalarini bajarishi uchun, BMT nizomining 22-moddasiga binoan, zaruratga qarab turli yordamchi organlarni ta'sis etish vakolatiga ega.

Bosh Assambleyaning ijtimoiy va gumanitar masalalar hamda madaniyat masalalari mutasaddisi bo'lgan Uchinchi qo'mitasi va boshqa ba'zi qo'mitalar ham bola huquqlari muammolari bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Ular tomonidan qabul qilingan qarorlar Bosh Assambleyaning yalpi majlislarida muhokama etilishi va tasdiqlanishi lozim.

Xulosa

Bola huquqlari haqida maqolani yakunlash uchun quyidagicha kengroq xulosa ishlatish mumkin:

Bola huquqlari – bu faqat huquqiy hujjatlarda yozib qo'yiladigan qoidalar emas, balki har bir jamiyatning ma'naviy darajasini ko'rsatib beradigan mezondir. Bola o'zini xavfsiz, qadrlangan va tinglangan holda his qiladigan muhitda ulg'aysa, kelajakda mas'uliyatli, ongli va mehribon inson bo'lib kamol topadi. Shu bois davlat, ota-ona, ta'lim muassasalari va butun jamiyat bola huquqlarini ta'minlashda hamkorlikda harakat qilishi zarur.

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi va milliy qonunchilik bolani har tomonlama himoya qilish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratadi. Ammo bu huquqlar faqat qog'ozda emas, real hayotda ham ishlashi uchun har birimiz o'zimizdan boshlashimiz, bolalarga hurmat, adolat va mehr bilan munosabatda bo'lishimiz kerak. Bola huquqlari masalasi bugungi kunda nafaqat huquqshunoslar yoki pedagoglar, balki butun jamiyat e'tiborida bo'lishi kerak bo'lgan dolzarb mavzulardan biridir. Chunki bola – bugunning himoyaga muhtoj insoni, ammo ertaning ongli fuqarosi, yetuk mutaxassisi va jamiyat tayanchi hisoblanadi. Agar bugun uning huquqlari e'tibordan chetda qolsa, ertaga



Date: 23rd February-2026

jamiyatning o'zi bundan aziyat chekishi muqarrar. Xulosa qilib aytganda, bola huquqlarini ta'minlash – bu kelajakni ta'minlash demakdir. Huquqlari hurmat qilingan, adolat va mehrni his qilib ulg'aygan bola ertaga boshqalarning ham huquqlarini hurmat qiladigan, vatan ravnaqiga hissa qo'shadigan yetuk shaxs bo'lib voyaga yetadi. Demak, har birimiz bugun bolalar uchun yanada xavfsiz, adolatli va mehribon muhit yaratishga intilsak, ertangi kun yanada farovon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Inson huquqlari darslik 2023. G. Yuldesheva, N. Gafurova
2. Bola huquqlarini himoya qilish huquqiy asoslari: xalqaro andozalar va milliy qonunchilik
3. <http://lex.uz/docs/-2595913> Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya
4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi bolalar huquqlarini himoya qilish majburiyatini olgan davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan muhim shartnomasi.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_huquqlari

